

KOREYA TARIXINI O'RGANISHDA DAVRLASHTIRISH MASALASI: METODOLOGIK YONDASHUVLAR VA NOMLARNI QAYTA ISHLATISH TAHLILI

Nazarqulova Nodira Baxtiyor qizi

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

o'qituvchisi, osiyouzturk@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15662210>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Koreya tarixini o'rganishda davrlashtirishning metodologik muammolari tahlil qilinadi. Koreya tarixidagi asosiy davrlar, ularni aniqlashdagi qiyinchiliklar hamda milliy, mintaqalararo, postkolonial va sivilizatsion kabi yondashuvlar keng yoritilgan. Shuningdek, maqolada “Choson”, “Koryo” va “Hanguk” nomlarining tarixiy qayta ishlatilishi va siyosiy o'zgarishlar ta'sirida ularning mazmuniy yangilanishi tahlil qilinadi. Tadqiqot, tarixiy manbalarni tanqidiy baholash va terminologik yondashuvlar orqali Koreya tarixining murakkab hikoyasini chuqurroq anglash zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Koreya tarixi, davrlashtirish, tarixshunoslik, Choson, Koryo, Hanguk, milliy yondashuv, mintaqalararo tarix, postkolonial tadqiqotlar, madaniy identitet.

Abstract. This article examines the methodological problem of periodization in Korean historical studies. It presents the main historical periods of Korea, the challenges in defining them, and the different academic approaches used in their analysis, including national, transnational, postcolonial, and civilizational perspectives. Additionally, the article explores the historical reuse and transformation of the names “Choson,” “Koryo,” and “Hanguk,” revealing how political shifts and cultural identity shaped their meanings over time. This study emphasizes the need for critical evaluation of historical sources and terminology in understanding Korean history and its complex narrative structure.

Keywords: Korean history, periodization, historiography, Choson, Koryo, Hanguk, national approach, transnational history, postcolonial studies, cultural identity

Аннотация. В данной статье рассматривается методологическая проблема периодизации в изучении истории Кореи. Освещаются основные исторические периоды, сложности их определения, а также различные научные подходы: национальный, транснациональный, постколониальный и цивилизационный. Особое внимание уделено историческому переосмыслению и повторному использованию названий «Чосон», «Корё» и «Хангук», отражающих политические изменения и формирование культурной идентичности. Работа подчёркивает важность критической оценки источников и терминологии для глубокого понимания корейской истории и её сложного нарратива.

Ключевые слова: История Кореи, периодизация, историография, Чосон, Корё, Хангук, национальный подход, транснациональная история, постколониальные исследования, культурная идентичность.

Kirish

Koreya tarixini o'rganishda davrlashtirish masalasi markaziy metodologik muammo bo'lib qolmoqda. Har qanday tarixiy tadqiqotda davrlarni ajratish, ularning chegaralarini belgilash va asosiy o'zgarishlarni tushuntirish muhim ahamiyatga ega. Biroq Koreya tarixida bu masala bir nechta sababga ko'ra murakkablik kasb etadi. Ushbu maqolada Koreya tarixini davrlashtirishga oid asosiy yondashuvlar, ularning tarixiy va metodologik asoslari, shuningdek, Koreya nomining tarixiy taraqqiyotdagi o'zgarishi tahlil qilinadi.

Metodlar

Ushbu tahliliy maqola tarixiy-davriy yondashuvlar, manbaviy tanqid va nomshunoslik asosida shakllangan. Koreya tarixidagi turli davrlash tizimlari, arxeologik hamda yozma manbalar asosida baholandi. Shuningdek, madaniy, siyosiy va postkolonial yondashuvlar asosida nomlar va davrlar evolyutsiyasi o'rganildi. Tadqiqot, mavjud tarixiy kontseptlar va turli ilmiy maktablar yondashuvlariga tayangan holda olib borildi.

Natijalar

Koreya tarixini o'rganishda davrlashtirish masalasi markaziy metodologik muammo bo'lib qolmoqda. Har qanday tarixiy tadqiqotda davrlarni ajratish, ularning chegaralarini belgilash va asosiy o'zgarishlarni tushuntirib berish muhim ahamiyatga ega. Biroq, Koreya tarixida bu masala bir nechta sababga ko'ra murakkablik kasb etadi.

1. Tarixiy davrlashtirishning o'ziga xos jihatlari

Koreya tarixining o'ziga xosligi – uning geografik joylashuvi, qadimiy jamiyatlarning madaniy ko'p qatlamligi va tashqi ta'sirlarning (ayniqsa, Xitoy va mo'g'ul davlatchiligi) doimiy mavjudligida namoyon bo'ladi. Shu sababli, Koreya tarixini davrlashtirishda quyidagi asosiy davrlar ajratiladi:

- Ibtidoiy jamiyat davri (paleolit – neolit – bronza davri): qadimgi jamiyatlar, totemistik tuzilmalar va dastlabki iqtisodiy faoliyatlar;
- Devor bilan o'ralgan shahar-davlatlar va konfederatsiyalar davri: Qadimgi Choson, Puyo, Koguryo, Samhan singari tuzilmalar;
- Markazlashgan qirolliklar davri: Silla, Pekche, Koguryo davlatlarining raqobati va birlashuvi;
- Feodal qirolliklar va tashqi bosqinchiliklar davri: Koryo, Mo'g'ullar bosqini va Xitoy bilan o'zaro ta'sir;
- Choson davri: Konfutsiylik asosida qurilgan siyosiy-iqtisodiy tuzum, ichki ijtimoiy qatlamlanish va tashqi izolyatsiya;
- Zamonaviy davr: XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yapon bosqini, mustamlakachilik siyosati, bo'linish va hozirgi Janubiy hamda Shimoliy Koreya davlatlarining shakllanishi.

2. Davrlashtirishdagi muammolar

Koreya tarixini davrlashtirishda quyidagi muammolar yuzaga chiqadi:

- Arxeologik va yozma manbalar tafovuti: Erta davrlarga oid yozma manbalar kam, asosan afsona va rivoyatlar asosida shakllangan, bu esa ilmiy asosda davr ajratishni qiyinlashtiradi.
- Koreya va Xitoy yondashuvlari orasidagi farq: Koreya tarixini ko'pincha Xitoy manbalari orqali o'rganilgan bo'lib, bu ba'zan Koreya tarixiy suverenitetini cheklangan tarzda talqin qilishga olib keladi.

- Davlatlararo madaniy sintez: Puyo, Koguryo yoki Viman Choson singari tuzilmalar bir necha etnik yoki siyosiy elementlardan tashkil topgan bo‘lib, ularni aniq bir etnos yoki davlatchilik bilan bog‘lash mushkul.

3. Turli yondashuvlar va ilmiy yo‘nalishlar

Koreya tarixini o‘rganishda quyidagi asosiy ilmiy yondashuvlar kuzatiladi:

Milliy yondashuv: Koreya tarixini uzluksiz, yagona milliy taraqqiyot yo‘li sifatida ko‘ruvchi konsepsiya. U qadimgi afsonaviy davrlardan to zamonaviy davrga qadar Koreya xalqi yagona tarixga ega degan g‘oyaga asoslanadi.

Mintaqalararo (transmilliy) yondashuv: Koreya tarixini Xitoy, Yaponiya, Markaziy Osiyo va hatto Yevropa bilan bog‘liq kontekstda, o‘zaro aloqadorlik asosida o‘rganadi. Bu yondashuv, ayniqsa, madaniy almashinuvlar va tashqi ta’sirlarni yoritishda muhim.

Postkolonial (mustamlakachilik davridan keyingi) yondashuv: Yapon mustamlakachiligi davrida yaratilgan tarixiy tasniflarni qayta ko‘rib chiqishga intiladi. Koreya tarixini o‘z mustaqil kontekstida qayta anglashni maqsad qiladi.

Madaniyatlararo (sivilizatsion) yondashuv: Koreya tarixini diniy, falsafiy va ijtimoiy tizimlar asosida davrlashtirishga urinish, masalan – shomonlik davri, konfutsiychilik davri, buddaviylik dini ta’siri, zamonaviy g‘oyaviy oqimlar va h.k.

Koreya tarixini davrlashtirish – bu nafaqat tarixiy faktlar asosida davr ajratish, balki tarixga qanday nazar bilan qaralishiga bog‘liq murakkab metodologik masaladir. Shu bois, Koreya tarixini o‘rganishda ilmiy tadqiqotlar faqat faktlarni emas, balki tarixiy manbalarni tahlil qilish, yondashuvlarni tanqidiy baholash orqali o‘z mustaqil yondashuvlarini shakllantirishi lozim bo‘ladi.

4. Koreya tarixini yoritishda tarixiy nom va terminlarning ishlatilishi

Har bir mamlakatning nomi, tabiiyki, uning tarixini aks ettiradi. Masalan, Germaniyaning turli hudud va tillarda yarim o‘ndan ortiq rasmiy nomlari mavjud bo‘lib, bu Germaniyaning XIX asrda yagona davlatga aylanishidan oldingi uzoq va bo‘lingan tarixini anglatadi.

Koreya nomining shakllanish tarixi biroz boshqacha. Mo‘g‘ul tilidagi “Solongos” so‘zidan tashqari (uning ham qiziqarli tarixi bor), butun dunyoda Koreya uchun uchta asosiy nom ishlatiladi: Koryo (Korea), Choson va Hanguk. Koreya o‘z tarixida qo‘shnilar tomonidan ham, koreyslarning o‘zlari orasida ham turli ifodalar bilan atalgan, biroq hozirgi davrda aynan shu uchta nom standartlashgan. Eng qiziq tomoni shundaki, bu uchala atama ham qadimgi tarixiy davrlardan qayta tiriltirilgan bo‘lib, zamonaviy davrda siyosiy o‘zgarishlarga qarab yangicha ma’nolarga ega bo‘lgan. Koreya nomining bunday qayta ishlatilishi – bu sivilizatsiyaning qadimiyligini hamda xalqning o‘z umumiy o‘tmishidan xabardorligini ko‘rsatadi.

Bu uchta nom ichida eng qadimiysi “Choson” bo‘lib, u qadimgi Xitoy manbalarida Koreya yarimoroli shimolidagi, Manchuriyagacha cho‘zilgan siyosiy birlikka ishora sifatida uchraydi. Bu bog‘liqlik keyinchalik Koreyaning ibtidoiy kelib chiqishi haqidagi milliy afsonalarga asos bo‘ldi – bunday afsonalar bugungi kunda ham Janubiy va Shimoliy Koreyada targ‘ib qilinmoqda.

Choson nomi o‘rmini keyinchalik Koguryo qirolligi egalladi, u taxminan ikki ming yil oldin xuddi shu hududda hukmronlik qilgan va mavjudligi ancha ishonchli tarzda tasdiqlangan. O‘sha davrdagi Xitoy manbalari urf-odat va marosimlar haqida yorqin tasvirlar berib, Koguryoni Koreya yarimorolidagi bir qancha guruhlardan biri sifatida tilga olgan. Bu guruhlar orasida yarimorol janubidagi uchta “Han” – Chinhan, Mahan va Byonhan qabilaviy konfederatsiyalari mavjud edi. “Han” atamasi, ehtimol, “buyuk”, “katta” yoki hatto “shoh” ma’nosini bildiruvchi

mahalliy soʻzdan olingan, biroq unga qadimgi Xitoy davlatini anglatuvchi iyeroglif (韓) tayinlangan. Bu esa chalkashlikka olib kelgan, lekin keyinchalik “Samhan” – “Uch Han” atamasi Koreya yarimoroli uchun umumiy ifoda boʻlib qoldi.

Bu atama Koguryo va Pekchening VII asrda Sillaning bosqini ostida yoʻq boʻlishidan keyin ham ishlatilgan. Biroq tarixda nomlarni ilk bor qayta ishlatish IX asrda boshlangan, yaʼni Yagona Silla ichki isyonlar tufayli parchalana boshlagach, shimoliy va janubi-gʻarbiy hududlar rahbarlari mos ravishda Koguryo va Pekche nomlarini qayta tiklashdi. Xuddi shu Koguryoning ikkinchi versiyasi yetakchisi X asr boshida yarimorolni harbiy yoʻl bilan yana birlashtirgach, u bu nomni qisqartirib, yangi qirollik uchun rasmiy nom sifatida “Koryo” deb tanladi. Aynan shu atama dunyo boʻylab yoyilib, hozirgi kunda Sharqiy Osiyodan tashqarida Koreya nomining yagona shakli sifatida tanilgan.

Koryo davrida esa, hatto mamlakat ichida ham boshqa koʻplab nomlar ishlatilgan: Samhan (Uch Han), Tongguk va Tongbang (Sharqiy mamlakat), Hedong (Dengizning sharqi), Tedong (Daedong – Buyuk Sharq) kabi. Bu nomlarning koʻpchiligi Koreyaning Xitoy bilan boʻlgan tarixiy munosabatlarini anglatgan va ehtimol, Xitoyda yaratilgan boʻlsa-da, xalq orasida oddiy atama sifatida ishlatilgan.

Siyosiy oʻzgarishlar natijasida rasmiy diplomatik nomlar oʻzgargan boʻlsa-da, bunday epitelar saqlanib qolgan. XIV asr oxirida Koryo sulolasining agʻdarilishi bilan yangi hukmdorlar yana qadimgi nomlardan birini – Chosonni tiklab, yangi qirollikning qonuniyligini asoslab berishga urinishdi. 500 yil oʻtgach, bu nom yana oʻzgartirildi, ammo bu safar Choson sulolasining tugaganini emas, balki unga xalqaro maqom berishni koʻzlagan. Natijada, 1897-yilda “Daehan Jeguk” (Buyuk Koreya imperiyasi) nomi rasmiylashtirildi, lekin hukmdor oʻsha-oʻsha boʻlib qoldi – u endi “imperator” deb ataladigan boʻldi.

Tehan Cheguk (“Daehan Jeguk”) qisqartmasi – “Hanguk” nomi keyinchalik kengroq tarqaldi va “Choson” bilan birga ishlatila boshlandi. 1910-yilda Yaponiya Koreyani mustamlakalashtirganida, “Chōsen” (Choson) nomini yana qayta tikladi. Biroq bu eski nomni yoʻq qilishga erishilmadi. 1919-yilda Shanxayda tuzilgan Koreyaning muvaqqat hukumati oʻzining rasmiy nomi sifatida Tehan Minguk (“Daehan Minguk”) – Koreya Respublikasi nomini tanladi.

Qiziq jihat shundaki, 1945-yilda ozodlikka chiqib, orqasidan mamlakat ikkiga boʻlingach, Janubiy Koreya aynan shu nomni oʻzining rasmiy nomi sifatida qabul qildi. Shimoliy Koreya esa yaponlar tomonidan tiklangan “Choson” nomini saqlab qoldi. Bugungi kunda Shimoliy koreyslar oʻz mamlakatlarini, hatto butun Koreyani ham “Choson” deb atashadi, janubliklar esa “Hanguk” deydi. Ular bir-birini “Janubiy Choson” va “Shimoliy Hanguk” deb atashadi – bu esa milliy boʻlinish tarixining murakkabligini, uning nomlash tizimiga ham taʼsir qilganini koʻrsatadi.

Qoʻshni davlatlarda ham bu aralashma koʻzga tashlanadi: Xitoy ikki davlatning oʻzlari istagan nomlarini ishlatadi, lekin Shimoliy Koreya bilan uzoq yillik kommunistik ittifoq sababli butun yarimorolni “Choson yarimoroli” deb ataydi. Tayvanda esa Shimoliy Koreya uchun Janubiy Koreya ishlatadigan atama ishlatiladi, biroq qiziq tomoni shundaki, Janubiy Koreya uchun emas. Eng gʻalati ifoda esa Yaponiyada: ular Shimoliy Koreyani “Kita Chōsen” (Shimoliy Choson), Janubiy Koreyani esa “Kankoku” (Hanguk) deb atashadi.

Munozara

Koreya tarixini davrlashtirish bu nafaqat faktlar asosidagi tasnif, balki tarixga nisbatan yondashuvni ham aks ettiruvchi murakkab metodologik masaladir. Turli manbalar va

yondashuvlar asosida tarixni davrlashtirish o‘quvchilarga tanqidiy fikrlash, tarixiy tafakkur va o‘z mustaqil qarashlarini shakllantirish imkonini beradi. Bundan tashqari, Koreya tarixidagi nomlarning qayta ishlatilishi xalqning tarixiy ongini aks ettiradi va tarixiy-siyosiy jarayonlarning belgisi sifatida muhim ahamiyatga ega. Ismlar o‘zgarishining mintaqaviy va xalqaro kontekstdagi ifodalanishi esa Koreya tarixining o‘ziga xosliklarini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Palais, J. B. (1996). *Confucian Statecraft and Korean Institutions: Yu Hyŏngwŏn and the Late Chosŏn Dynasty*. University of Washington Press.
2. Seth, M. J. (2011). *A Concise History of Korea: From the Neolithic Period through the Nineteenth Century* (2nd ed.). Rowman & Littlefield.
3. Haboush, J. K. (Ed.). (1999). *Women and Confucian Cultures in Premodern China, Korea, and Japan*. University of California Press.
4. Schmid, A. (2002). *Korea Between Empires, 1895–1919*. Columbia University Press.
5. Larsen, K. (2008). *Traditional Korean Historiography: A Critical Introduction*. Institute for East Asian Studies, University of California.
6. Em, H. (2013). *The Great Enterprise: Sovereignty and Historiography in Modern Korea*. Duke University Press.
7. Lee, K. B. (1984). *A New History of Korea*. Harvard University Press.
8. 이기백 (Lee Ki-baek). (1984). *한국사신론* [New Interpretation of Korean History]. 일조각.
9. 국사편찬위원회 (National Institute of Korean History). (2003). *한국사* [History of Korea]. 교육부.
10. 박영호 (Park Young-hyo). (2010). *한국 고대사의 이해* [Understanding Ancient Korean History]. 혜안.
11. Ким, Е. И. (1974). *Древняя Корея: Очерки истории и культуры* [Ancient Korea: Essays on History and Culture]. Наука.
12. Гончаров, А. А. (2008). *История Кореи с древности до наших дней* [History of Korea from Ancient Times to the Present Day]. Восточная литература.